

## Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



### 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

#### RAQAMLAR

**7037,7 mlrd.so'm**

Sanoat ishlab chiqarish  
hajmi

**111,5 %**

sanoat ishlab chiqarish  
indeksi

**4480,4 mlrd.so'm**

Iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmi

**127,2 %**

o'sish sur'ati

**63,7 %**

Iste'mol tovarlarining jami  
sanoat ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi

**35,1 %**


sanoat ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7037,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 111,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat - 10,6 % ga va SUV bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 0,7 % ni, elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash - 23,0 % ni tashkil qildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash - 8,9 % ga, o'sishi kuzatildi.

#### 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



## **2018 yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.**



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,01 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6693,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,1 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 41,9 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,9 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 17,4 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 41,9 %**



**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 18,9 %**



**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 17,4 %**

**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>Mahsulot turlari</b>		<i>2019 yil yanvar-oktabr</i>	<i>2018 yil yanvar-oktabr</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		475,6	125,0
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		72,2	90,2
Engil avtomobillar		42238	27226
Yuk avtomobilari – dona		5855	6076
Aroq – ming litr		920,7	1328,0
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		17,1	16,1
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr		963,5	1010,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		67371,8	61976,1
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

<b>Mahsulot turlari</b>		<i>2019 yil yanvar-oktabr</i>	<i>2018 yil yanvar-oktabr</i>
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		299,8	751,0
Milliy non (yopgan non) – tonna		639,8	233,8
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		13242,3	12915,6
Xo'jaliksovuni – tonna		4670	6118
Paxta tolasi –tonna		46498,9	60817,0
Paxta chigititonna		72732,3	93561,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Aroq 407,3 ming litrga;
2. Tarkibida 15 % dan ko'p spirit bo'lган boshqa tabiiy uzum vinolari 46,5 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
4. Yuk avtomobilari 221 donaga;
5. Paxta tolasi 14318,1 tonnaga;
6. Paxta chigititona 20828,7 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 298,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 123,0 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 66,6 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish 32,7 % ni tashkil etdi.




## 2019 yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 46,7 foiz, Urganch shahri 23,7 foiz, Xonqa 5,2 foiz, Shovot 4,1 foiz, Gurlan tumani 4,1 foizni va Urganch 3,0 foiz hamda eng past bo'lgan Qo'shko'pir tumani 2,0 foiz, Xiva tumani 1,7 foiz va Xiva shahri 1,2 foizni tashkil qildi.

## 2018 yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




**2019 yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>2019 yil yanvar-oktabr</i>	<i>2018 yil yanvar-oktabr</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>7037,7</b>	<b>4911,6</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,5</b>	<b>0,4</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,5	0,4
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>6693,6</b>	<b>4730,8</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	996,2	797,0
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	226,8	176,4
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1328,6	1127,8
Kiyim ishlab chiqarish	23,3	51,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	7,9	5,4
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	8,0	4,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	16,7	15,1
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,8	0,9
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,4	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	22,6	12,8
Asosiy farmasevtika	5,8	6,1
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	87,0	70,7
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	300,0	200,5
Metallurgiya sanoati	28,6	8,6
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	139,9	127,3
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	30,2	27,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	370,5	173,6


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>2019 yil yanvar-oktabr</i>	<i>2018 yil yanvar-oktabr</i>
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2948,1	1786,5
Mebel ishlab chiqarish	28,0	20,2
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	105,2	106,1
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	18,8	12,7
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>298,5</b>	<b>141,0</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>45,1</b>	<b>39,5</b>

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-oktabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.**




## Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-oktabr oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 40,7 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-oktabr oylarida bu ko'rsatkich 47,9 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 8,6 foizdan 8,2 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 46,9 foizdan 39,0 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 6,0 mlrd.so'mlik (2018 yil yanvar-oktabr oylarida 6,3 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 3371,4 mlrd.so'mlik (2000,0 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 574,7 mlrd.so'mlik (420,0 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 2741,5 mlrd.so'mlik (2304,4 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### 2019 yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




**2018 yil yanvar- oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3812,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 109,6 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-oktabr oylarida Xazorasp tumani 8251,6 ming so'mdan 2019 yil yanvar-oktabr oylarida 13426,9 ming so'mga, Urganch shahri 8465,0 ming so'mdan 11701,5 ming so'mga, Xonqa tumani 1682,5 ming so'mdan 1996,9 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


**2019 yil yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.  
(mlrd. so'm)**




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 4480,4 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 127,2 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1036,2 mlrd.so'mni va 3444,2 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 110,2 foiz va 133,3 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 63,7 foizni (*2018 yil yanvar-oktabr oylarida 71,7 foiz*) tashkil qildi.


### **2019 yil yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)**



### **2019 yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)**



**2019 yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga  
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2427,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surʼati 125,0 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-oktabr oylarida Xazorasp tumani 7371,1 ming so'mdan 2019 yil yanvar-oktabr oylarida 10854,9 ming so'mga, Urganch shahri 4915,7 ming so'mdan 5051,6 ming so'mga, Gurlan tumani 901,8 ming so'mdan 956,3 ming so'mga Urganch tumani 770,7 ming so'mdan 796,8 ming so'mga o'sgani kuzatildi.